

DAVR XARAJATLARIGA OLIB BORILADIGAN ASOSIY VOSITALAR AMORTIZATSIYA XARAJATLARI HISOB

Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti

Djumayeva Guzal Axtamovna asistent

Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti

Ergasheva Sevinchxon talaba

Raimova Rayhona talaba

Annotatsiya. Ushbu maqolada respublikamiz hisob tizimida davr xarajatlari tarkibida aks ettiriladigan asosiy vositalar amortizatsiya xarajatlarini hisobga olish hamda ularning auditini amalga oshirishning muhim jihatlari yoritib berilgan. Shuningdek, amortizatsiya xarajatlari hisobini yuritish va audit jarayonini yanada samarali tashkil etish hamda takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar: amortizatsiya, davr xarajatlari, ma'muriy xarajatlar, sotish xarajatlari, boshqa operation xarajatlar, mahsulot tannarxi, noishlab chiqarish faoliyati, xarajatlar omili.

Kirish

Davr xarajatlari, korxonaning asosiy ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, noishlab chiqarish va nomoliyaviy xarajatlarni o'z ichiga oladi. Bu xarajatlar, boshqaruv, tijorat va umumiy xo'jalik xarajatlaridan iborat bo'lib, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik xizmatlariga sarflanadigan mablag'larni ham qamrab oladi.

Bunday xarajatlar korxonaning asosiy faoliyati va mahsulot tannarxi bilan bevosita bog'liq emas, ammo ularning amalga oshirilishi korxonaning muayyan vazifalarini bajarish uchun zarur, shuning uchun ularni operatsion yoki davr xarajatlari deb atashadi.

Sotish va ma'muriy maqsadlar uchun ishlatiladigan asosiy vositalar, masalan, yengil va yuk avtomobillari, ofis binolari, kompyuter uskunalari, mebellar va boshqa ofis jihozlari

kabi vositalarning eskirishi davr xarajatlariga kiritiladigan amortizatsiya xarajatlarini tashkil etadi. Korxonalarda ushbu vositalarning hisobini to'g'ri yuritish va auditorlik tashkilotlariga ularning auditini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Davr xarajatlarining hisoboti va auditi bo'yicha xorijiy mamlakatlardan bir qator olimlar, jumladan E. Arens, Dj. Lobbek, R. Adams, G. Anderson, B. Nidlz, D. Kondvell va boshqalar tadqiqotlar olib borgan. Shuningdek, R.A. Alborov, V.D. Andreev, I.T. Balabanov, A.S. Bakaev va boshqa mutaxassislar ham bu sohada o'z hissasini qo'shgan.

O'zbekiston iqtisodchilari orasida M.Umarova, U.Eshboev, K.Axmadjonov, B.A.Xoshimov, S.Sh.Yuldashev, Sh.N. Fayziev va R.D. Dustmuradov kabi olimlar davr xarajatlari haqida o'z fikrlarini bildirishgan. A.A. Karimovning fikricha, davr xarajatlari "...mahsulot ishlab chiqarish va sotishga bog'liq bo'lmasdan, vaqt va xo'jalik faoliyatining davomiyligi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar" sifatida tavsiflanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida davr xarajatlariga taalluqli asosiy vositalarning amortizatsiyasi hisobini va auditini ilmiy tahlil qilish uchun guruhlash, tarkibiy, qiyosiy va trendli tahlil metodlari qo'llanildi.

Tahlil va natijalar

Asosiy vositalar eskirish xarajatlarini, ayniqsa davr xarajatlari tarkibiga kiritiladigan amortizatsiya summalarini to'g'ri va oqilona tashkil etish xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning to'g'ri yo'lga qo'yilishi moliyaviy natijalarning haqqoniy aks ettirilishini ta'minlaydi.

Amortizatsiya — bu asosiy vositaning foydali xizmat muddati davomida uning amortizatsiyalanadigan qiymatini mazkur aktivning vazifasiga muvofiq ravishda mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga yoki davr xarajatlariga tizimli ravishda taqsimlash orqali eskirish qiymatini pul ifodasida aks ettirish jarayonidir.

Asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari me'yorlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi Soliq kodeksining 144-moddasida belgilangan. Shu bilan birga, korxonalarga belgilangan me'yorlardan farq qiluvchi amortizatsiya stavkalarini qo'llashga ruxsat etiladi. Natijada buxgalteriya hisobi va soliq hisoboti asosida aniqlangan sof foyda o'rtasida vaqtinchalik tafovutlar yuzaga kelishi mumkin.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda ko'plab korxonalarda davr xarajatlarining katta ulushini aynan asosiy vositalarning eskirish xarajatlari tashkil etadi. Asosiy vositalar foydalanish jarayonida asta-sekin jismoniy va ma'naviy eskiradi hamda ushbu eskirish qiymati ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxiga yoki davr xarajatlari tarkibiga kiritiladi. Agar asosiy vosita ishlab chiqarish jarayonida emas, balki sotish yoki ma'muriy ehtiyojlar uchun foydalanilsa, uning amortizatsiya summasi davr xarajatlari hisobiga o'tkaziladi.

Masalan, savdo binolari, vitrinalar, muzlatkichlar, savdo rastalari, mahsulotlarni yetkazib berishda foydalaniladigan transport vositalari, reklama inshootlari, nazorat-kassa mashinalari, to'lov terminallari va sotish faoliyatida ishlatiladigan boshqa asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari bevosita sotish bilan bog'liq davr xarajatlariga kiritiladi.

Shuningdek, ma'muriy bino va inshootlar, ofis mebellari, kompyuter va hisoblash texnikasi, xizmat avtomobillari hamda boshqaruv maqsadlarida foydalaniladigan boshqa asosiy vositalarning eskirish xarajatlari ma'muriy davr xarajatlari tarkibida hisobga olinadi.

Ba'zi hollarda asosiy vositaning bitta obyektidan ham ishlab chiqarish, ham noishlab chiqarish maqsadlarida foydalanilishi mumkin. Bunday vaziyatlarda amortizatsiya xarajatlarini ishlab chiqarish va davr xarajatlari o'rtasida taqsimlash xarajatlarni yuzaga keltiruvchi omilning natural ko'rsatkichlari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Masalan, ishlab chiqarish va ma'muriy ehtiyojlar uchun bir vaqtda foydalaniladigan bino bo'yicha eskirish xarajatlari ushbu bo'limlar egallagan maydon ulushiga mutanosib

ravishda taqsimlanadi. Bu esa ko'chmas mulk obyektlari uchun asosiy xarajat drayveri sifatida foydalaniladigan maydon ko'rsatkichini belgilaydi.

Asosiy vositalar hisobini tartibga soluvchi amaldagi standart qabul qilinganiga o'n besh yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lib, bugungi kunda ushbu hisob tizimini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu, avvalo, yangi texnologiyalar va zamonaviy asosiy vositalarning keng joriy etilishi bilan izohlanadi. Ayniqsa, ofis faoliyatida foydalaniladigan murakkab va ko'p komponentli asosiy vositalar soni sezilarli darajada oshgan.

Masalan, turli hududlarga o'rnatiladigan monitorlar bir nechta qimmatbaho tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ularni alohida yoki majmua holida xarid qilish mumkin. Ushbu turdagi asosiy vositalardan foydalanish jarayonida butun tizim emas, balki uning ayrim qismlari ishdan chiqishi holatlari kuzatiladi. Bu esa buxgalterlar va auditorlar zimmasiga murakkab va mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi.

Amortizatsiya ajratmalarining o'z vaqtida va belgilangan tartibda hisobga olinganligini tekshirish jarayonida korxonaning hisobot yili uchun tasdiqlangan hisob siyosatiga rioya etilganligi baholanadi. Audit jarayoni yil boshida tuzilgan asosiy vositalar bo'yicha hisob-kitoblarning to'g'riligini tekshirishdan boshlanadi. Amortizatsiya hisob-kitoblari vedomostlarga to'g'ri kiritilganligi inventar kartochkalar orqali solishtiriladi.

Belgilangan amortizatsiya me'yorlarining to'g'ri qo'llanilganligini aniqlash uchun yillik me'yorlar oylik ko'rsatkichlarga aylantiriladi va hisobot davrida asosiy vositalar harakati bilan bog'liq operatsiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, xizmat muddati tugagan asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya hisoblashning to'xtatilganligi alohida nazorat qilinadi.

Davr xarajatlari tarkibidagi eskirish summalarining aniqligi korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli amortizatsiya summalarining noto'g'ri hisobga olinishi holatlarini aniqlash, aybdor shaxslarni belgilash va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish auditorning muhim vazifalaridan biridir.

Asosiy vositalarning texnik holatini baholash eskirish darajasi, ishdan chiqish va yangilanish ko'rsatkichlarini hisoblash bilan yakunlanadi. Eskirish darajasi tekshiruv sanasidagi eskirish summasining dastlabki qiymatga nisbati asosida aniqlanadi. Ishdan chiqish koeffitsienti esa yil davomida hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar qiymatining yil oxiridagi dastlabki qiymatga nisbati orqali hisoblab chiqiladi.

Taklif va tavsiyalar

Davr xarajatlari tarkibiga kiritiladigan asosiy vositalar amortizatsiya xarajatlarini hisobga olish va auditini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Davr xarajatlariga olib boriladigan asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya hisobini yuritishda ularning funksional vazifasini aniq belgilash lozim. Har bir asosiy vosita obyektining ishlab chiqarish, sotish yoki ma'muriy maqsadlarga xizmat qilishi hujjatlar bilan asoslangan holda tasniflanishi amortizatsiya summalarining to'g'ri taqsimlanishini ta'minlaydi.

2. Bir vaqtning o'zida bir nechta faoliyat yo'nalishlarida foydalaniladigan asosiy vositalar bo'yicha eskirish xarajatlarini taqsimlashda xarajat drayverlaridan kengroq foydalanish tavsiya etiladi. Xususan, binolar bo'yicha foydalanilayotgan maydon, uskunalar bo'yicha mashina-soat, transport vositalari bo'yicha bosib o'tilgan masofa kabi natural ko'rsatkichlar asosida taqsimot amalga oshirilishi hisob axborotining aniqligini oshiradi.

3. Zamonaviy va murakkab tuzilishga ega bo'lgan kompleks asosiy vositalar hisobini yuritish bo'yicha amaldagi me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish zarur. Bunday obyektlarning tarkibiy qismlarini alohida amortizatsiyalash, ularning foydali xizmat muddati va qiymatiga mos ravishda hisobga olish buxgalteriya hisobining shaffofligini ta'minlaydi.

Mazkur taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish davr xarajatlari tarkibidagi asosiy vositalar amortizatsiya xarajatlari hisobining aniqligi va shaffofligini ta'minlashga, shuningdek, auditorlik tekshiruvlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://www.accountingtools.com/articles.> // Period costs – Accounting tools.
2. Э.Аренс, Дж.Лоббек. Аудит. Пер.с.англ. М.А.Терехова и другиеМ.:Финансы и статистика, Г.Андерсон, Б.Нидлз, Д.Кондвелл. «Бухгалтерский учет» -М.:Финансы и статистика, 1993-496 с., Бакыт Султанова, Жумакуль Абишева, Феризат Тулегенова. Учебное пособие. Алматы 2016
3. Karimov A.A, va boshqalar. “Buxgalteriya hisobi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik/Mualliflar: A.A.Karimov, F.R.Ismoilov, A.Z.Avloqulov. – T.: “Sharq”, 2004. – 394 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti 5-son “Asosiy vositalar” // www.bhms.uz – Buxgalteriya hisobining milliy standartlari.